# O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-sentabr*)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o`sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo`yicha qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko`proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo`ladilar.

Ushbu yo`nalishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida respulikaning tashqi savdo aylanmasi hajmi 31 645,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 8 577,1 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 37,2 % ga oshgan. Ushbu ko`rsatkichdan eksport hajmi 13 677,0 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati – 45,5 %) va import hajmi esa 17 968,8 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati – 31,5 %) yetdi. Hisobot davrida 4 291,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo aylanmasi qayd etildi.

## O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)




* *dastlabki ma`lumot*

O`zbekiston jahonning 181 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Respublika tashqi savdo aylanmasining dunyo davlatlari qatoriga nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (18,7 %), Rossiya Federatsiyasida (14,9 %), Qozog`istonda (8,3 %), Koreya Respublikasida (6,6 %), Turkiyada (5,8 %), Germaniyada (2,4 %) va Qirg`izistonda (2,0 %) qayd etilgan.

## O`zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo`lgan davlatlar

(yanvar-sentabr 2019 y., mln. AQSh dollari, ulushi %)



2019 yilning III choragida tashqi savdo aylanmasi hajmi 11 962,6 million AQSh dollarini tashkil etdi va joriy yilning ikkinchi choragi bilan taqqoslaganda 16,4 foizga o`sdi.




2019 yilning 3 choragida tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmida import ulushining kamayishi (58,1% dan 56,2 % ga ), eksport ulushining esa ko`payishi (41,9 % dan 43,8 % ga) kuzatildi.

Tashqi savdo aylanmasining choraklik tuzilmasida ijobiy o`zgarishlar kuzatilmoqda. O`tgan yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 8,9 foiz punktga o`sdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko`ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 10 703,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O`zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 33,8 % ga yetdi.

Qo`shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o`zaro savdo-sotiq aloqalariga ham ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoning qariyib 37,7 %, shundan eksportning 42,6% va importning 33,9% qo`shni mamlakatlar hissasiga to`g`ri keladi.

**O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)




Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 66,2 % ga yetib (20 942,8 mln. AQSh dollari) o`tgan yilning mos davridagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 147,8 % ga oshgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan besh davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg`oniston (424,2 mln. AQSh dollari), Qirg`iziston (423,7 mln. AQSh dollari), Tojikiston (104,0 mln. AQSh dollari), Fransiya (44,0 mln. AQSh dollari) va Eron (6,1 mln. AQSh dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

# O`zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)

| Davlat nomi | 2017-yil yanvar-sentabr | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **3426,5** | **4446,7** | **5911,1** |
| eksport | 1421,1 | 1958,7 | 2245,5 |
| import | 2005,4 | 2488,0 | 3665,6 |
| saldo | -584,3 | -529,3 | -1420,1 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **3479,4** | **4180,4** | **4704,5** |
| eksport | 1534,6 | 1536,3 | 1794,9 |
| import | 1944,7 | 2644,1 | 2909,6 |
| saldo | -410,1 | -1107,8 | -1114,7 |
| **Qozog`iston** | **1477,0** | **2141,7** | **2637,6** |
| eksport | 758,2 | 1044,4 | 1156,5 |
| import | 718,7 | 1097,3 | 1481,2 |
| saldo | 39,5 | -52,9 | -324,7 |
| **Koreya Respublikasi** | **961,8** | **1289,0** | **2080,7** |
| eksport | 81,2 | 68,5 | 75,0 |
| import | 880,6 | 1220,5 | 2005,7 |
| saldo | -799,5 | -1151,9 | -1930,8 |
| **Turkiya** | **1085,8** | **1520,4** | **1840,5** |
| eksport | 620,6 | 619,7 | 878,1 |
| import | 465,3 | 900,7 | 962,4 |
| saldo | 155,3 | -281,1 | -84,3 |
| **Germaniya** | **466,2** | **524,5** | **744,0** |
| eksport | 19,2 | 31,8 | 36,8 |

(mln.AQSh dollari)

| Davlat nomi | 2017-yil yanvar-sentabr | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|---|
| import | 447,1 | 492,7 | 707,2 |
| saldo | -427,9 | -460,9 | -670,3 |
| **Qirg`iziston** | **196,4** | **284,4** | **638,8** |
| eksport | 138,0 | 184,7 | 531,3 |
| import | 58,5 | 99,7 | 107,5 |
| saldo | 79,5 | 84,9 | 423,7 |
| **AQSh** | **169,3** | **331,8** | **514,0** |
| eksport | 15,1 | 22,8 | 20,1 |
| import | 154,2 | 309,0 | 493,9 |
| saldo | -139,1 | -286,2 | -473,7 |
| **Afg`oniston** | **427,2** | **474,7** | **427,8** |
| eksport | 425,4 | 473,3 | 426,0 |
| import | 1,8 | 1,4 | 1,8 |
| saldo | 423,6 | 471,9 | 424,2 |
| **Turkmaniston** | **134,6** | **157,3** | **401,9** |
| eksport | 56,3 | 31,6 | 69,2 |
| import | 78,3 | 125,8 | 332,7 |
| saldo | -22,1 | -94,2 | -263,5 |
| **Litva** | **191,8** | **198,4** | **362,1** |
| eksport | 4,2 | 7,3 | 17,0 |
| import | 187,6 | 191,1 | 345,1 |
| saldo | -183,4 | -183,8 | -328,1 |
| **Tojikiston** | **178,3** | **285,5** | **357,6** |
| eksport | 137,2 | 165,9 | 230,8 |

(mln.AQSh dollari)

| Davlat nomi | 2017-yil yanvar-sentabr | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|---|
| import | 41,1 | 119,6 | 126,8 |
| saldo | 96,1 | 46,3 | 104,0 |
| **Yaponiya** | **120,7** | **313,7** | **329,0** |
| eksport | 10,2 | 10,0 | 23,8 |
| import | 110,5 | 303,7 | 305,2 |
| saldo | -100,3 | -293,8 | -281,5 |
| **Italiya** | **132,4** | **206,5** | **320,9** |
| eksport | 12,2 | 17,0 | 19,7 |
| import | 120,2 | 189,4 | 301,2 |
| saldo | -108,0 | -172,4 | -281,5 |
| **Eron** | **203,2** | **228,8** | **303,9** |
| eksport | 162,5 | 136,2 | 155,0 |
| import | 40,7 | 92,6 | 148,9 |
| saldo | 121,9 | 43,6 | 6,1 |
| **Latviya** | **205,7** | **338,0** | **297,4** |
| eksport | 57,8 | 31,2 | 37,9 |
| import | 147,9 | 306,8 | 259,5 |
| saldo | -90,0 | -275,7 | -221,6 |
| **Ukraina** | **191,1** | **325,9** | **282,4** |
| eksport | 71,1 | 74,4 | 94,1 |
| import | 120,0 | 251,6 | 188,3 |
| saldo | -48,8 | -177,2 | -94,2 |
| **Hindiston** | **266,8** | **203,5** | **264,2** |
| eksport | 26,5 | 17,7 | 17,4 |

(mln.AQSh dollari)

| Davlat nomi | 2017-yil yanvar-sentabr | 2018-yil yanvar-sentabr | 2019-yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|---|
| import | 240,3 | 185,8 | 246,8 |
| saldo | -213,8 | -168,1 | -229,4 |
| **Belarus** | **110,9** | **278,5** | **260,7** |
| eksport | 18,1 | 27,4 | 33,7 |
| import | 92,8 | 251,2 | 227,0 |
| saldo | -74,7 | -223,8 | -193,3 |
| **Fransiya** | **193,6** | **225,2** | **257,1** |
| eksport | 105,6 | 136,2 | 150,6 |
| import | 88,1 | 89,0 | 106,5 |
| saldo | 17,5 | 47,2 | 44,0 |

## EKSPORT

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`sishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan korxonalar soni o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1 074 taga ko`payib, ularning umumiy soni 5 135 tani tashkil etdi.

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug`ullanuvchi xo`jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 13 677,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sish sur`ati 45,5 % ga teng). Eksport tarkibida tovarlar 81,4 % ulushga ega bo`lib, bular asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari (16,1 %), to`qimachilik va to`qimachilik buyumlari (8,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,4 %), rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (5,2 %) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (4,9 %) hissasiga tog`ri kelmoqda.

## Tovarlar va xizmatlar eksporti tarkibi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)




2019-yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan, kimyo mahsulotlari va buyumlaridan tashqari tovar va xizmatlar tarkibi turlarini eksport qilish hajmlarining o`sishi kuzatildi.

## MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo`yicha eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-sentabr)

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Jami eksport** | **13677,0** | **145,5** | **100,0** | **4667,5** | **126,2** | **100,0** | **9009,5** | **158,0** | **100,0** |
| **Paxta tolasi** | 238,7 | 138,0 | 1,7 | 1,0 | 33,4 | 0,0 | 237,7 | 139,9 | 2,6 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 1149,9 | 139,9 | 8,4 | 768,5 | 138,9 | 16,5 | 381,4 | 142,0 | 4,2 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 675,2 | 98,0 | 4,9 | 311,1 | 111,3 | 6,7 | 364,1 | 89,0 | 4,0 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | 2204,6 | 114,8 | 16,1 | 1054,9 | 116,2 | 22,6 | 1149,7 | 113,4 | 12,8 |
| **Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar** | 228,2 | 154,3 | 1,7 | 73,1 | 2,6 b. | 1,6 | 155,0 | 129,0 | 1,7 |
| **Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar** | 706,6 | 144,9 | 5,2 | 125,2 | 195,2 | 2,7 | 581,4 | 137,3 | 6,5 |
| **Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari** | 317,0 | 2,2 b. | 2,3 | 224,5 | 2,1 b. | 4,8 | 92,4 | 2,3 b. | 1,0 |
| **To`qimachilik mahsulotlari** | 1174,9 | 121,4 | 8,6 | 604,2 | 114,9 | 12,9 | 570,7 | 129,0 | 6,3 |
| **Oltin** | 3983,0 | 2,6 b. | 29,1 | - | - | - | 3983,0 | 2,6 b. | 44,2 |
| **Xizmatlar** | 2544,8 | 112,7 | 18,6 | 1287,0 | 113,6 | 27,6 | 1257,8 | 111,9 | 14,0 |
| **Boshqalar** | 454,1 | 197,0 | 3,4 | 217,8 | 2,2 b. | 4,6 | 236,3 | 177,5 | 2,7 |

## Eksport tarkibi dinamikasi

(yanvar-sentabr, %)

| Tarkibi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **Paxta tolasi** | 2,9 | 1,8 | 1,7 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 6,3 | 8,7 | 8,4 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 6,9 | 7,3 | 4,9 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | 12,4 | 20,4 | 16,1 |
| **Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar** | 1,2 | 1,6 | 1,7 |
| **Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar** | 5,6 | 5,2 | 5,2 |
| **Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari** | 2,7 | 1,6 | 2,3 |
| **To`qimachilik mahsulotlari** | 9,0 | 10,3 | 8,6 |
| **Oltin** | 30,2 | 16,6 | 29,1 |
| **Xizmatlar** | 19,7 | 24,0 | 18,6 |
| **Boshqalar** | 3,1 | 2,5 | 3,4 |

So`nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida diversifikatsiya kuzatildi. Jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushi 3,7 foiz punktga oshib, 16,1 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari - 2,1 % ga, qora metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar - 0,5 % punktga oshdi. Eksport tarkibi boshqa turlari ulushining pasayishi eksport tarkibida oltin hamda energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada o`sishi bilan izohlanadi.

Qolgan eksport tarkibi oziq-ovqat mahsulotlari hamda energiya manbalari va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada o`sishi hisobiga pasayganligini kuzatilmoqda.

# Eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

(2019 y. yanvar-sentabr)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | | | | | |
| meva va rezavorlar | 510,1 | 122,0 | alkogolli va alkogolsiz ichimliklar | 8,6 | 98,0 |
| sabzavotlar | 449,2 | 189,5 | qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari | 36,4 | 172,3 |
| bug`doy | 8,9 | 43,3 | | | |
| **Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar** | | | | | |
| plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar | 308,7 | 87,6 | korbonat | 11,0 | 99,6 |
| o`g`itlar | 107,4 | 102,3 | kimyoviy shtapelli tola | 13,8 | 2,7 b. |
| farmatsevtika mahsuloti | 6,7 | 69,6 | ammiak | 1,2 | 91,6 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | | | | | |
| tabiiy gaz | 2018,5 | 116,0 | motor moylari | 4,3 | 41,9 |
| elektroenergiya | 63,3 | 50,4 | tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar | 3,8 | 61,1 |
| qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari | 33,1 | 123,6 | | | |
| **Qora va rangli metallar** | | | | | |
| mis va mis buyumlari | 517,1 | 161,8 | rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari) | 189,6 | 112,9 |
| temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar | 198,2 | 145,7 | qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar | 0,5 | 44,0 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | | | | | |
| simlar va kabellar | 31,9 | 2,2 b. | yengil avtomobil | 91,6 | 3,3 b. |
| transformatorlar va akkumlyatorlar | 27,1 | 2,7 b. | avtobuslar va mikroavtobuslar | 7,3 | 197,0 |
| elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozlari | 16,5 | 2,2 b. | yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar | 8,3 | 147,4 |
| avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar | 4,0 | 143,0 | tirkama va yarim tirkamalar | 4,6 | 3,8 b. |
| monitorlar va proyektorlar | 8,8 | 121,1 | | | |
| **Boshqalar** | | | | | |
| to`qimachilik mahsulotlari | 1174,9 | 121,4 | oyoq kiyim, getra va ularning qismlari | 18,8 | 2,1 b. |
| charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar | 40,8 | 64,6 | shisha va shisha buyumlar | 6,4 | 82,9 |
| qog`oz, karton va matbaa buyumlari | 12,6 | 92,7 | sopol buyumlar | 11,2 | 105,2 |

Eksportning eng katta ulushi tabiiy gaz (umumiy tovarlar eksporti hajmidagi ulushi 18,1 %), to`qimachilik mahsulotlari (10,6 %), mis va mis buyumlari (4,6 %), meva va rezavorlar (4,6 %) hissasiga to`g`ri keladi.

So`nggi uch yil ichida MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi, ularning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2017 yildagi 32,3 % dan 2019 yilda 34,1 % gacha ortdi. Mos ravishda, boshqa xorijiy mamlakatlarning umumiy eksportdagi ulushi 65,9 % tashkil etdi.

**MDH va boshqa davlatlarga tovar eksporti hajmlari dinamikasi**

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi %)




O`tgan yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 16,4 %), Rossiya Federatsiyasi (13,1 %), Qozog`iston (8,5 %), Turkiya (6,4 %), Qirg`iziston (3,9 %), Afg`oniston (3,1 %) va Tojikiston (1,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda. Hamda ularning jami eksportdagi ulushi 53 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan biri bo`lgan Tojikiston eksport ulushi bo`yicha Eronni o`rniga qayta tiklandi. Shu bilan birga, Qirg`iziston yildan yilga Afg`oniston va Eronni ortda qoldirib o`z mavqeini mustahkamlamoqda.

### Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-sentabr)

| | 2017 г. | 2018 г. | 2019 г. |
|---|---|---|---|
| 1 | Rossiya Federatsiyasi 16,3 % | Xitoy Xalq Respublikasi 20,8 % | Xitoy Xalq Respublikasi 16,4 % |
| 2 | Xitoy Xalq Respublikasi 15,1 % | Rossiya Federatsiyasi 16,3 % | Rossiya Federatsiyasi 13,1 % |
| 3 | Qozog`iston 8,1 % | Qozog`iston 11,1 % | Qozog`iston 8,5 % |
| 4 | Turkiya 6,6 % | Turkiya 6,6 % | Turkiya 6,4 % |
| 5 | Afg`oniston 4,5 % | Afg`oniston 5,0 % | Qirg`iziston 3,9 % |
| 6 | Eron 1,7 % | Qirg`iziston 2,0 % | Afg`oniston 3,1 % |
| 7 | Qirg`iziston 1,5 % | Tojikiston 1,8 % | Tojikiston 1,7 % |

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha jug`rofiyasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan 148 davlatdan 169 davlatgacha o`sdi.

## O`zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlariga amalga oshirilgan eksport hajmi va o'sish sur'atlari

(yanvar-sentabr)

| Davlat nomi | Mln. AQSh dollari | | O`sish sur`ati, % | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1958,7 | 2245,5 | 137,8 | 114,6 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 1536,3 | 1794,9 | 100,1 | 116,8 | 2 | 2 |
| Qozog`iston | 1044,4 | 1156,5 | 137,7 | 110,7 | 3 | 3 |
| Turkiya | 619,7 | 878,1 | 99,9 | 141,7 | 4 | 4 |
| Qirg`iziston | 184,7 | 531,3 | 133,9 | 2,9 b. | 6 | 5 |
| Afg`oniston | 473,3 | 426,0 | 111,3 | 90,0 | 5 | 6 |
| Tojikiston | 165,9 | 230,8 | 121,0 | 139,1 | 7 | 7 |
| Eron | 136,2 | 155,0 | 83,8 | 113,8 | 8 | 8 |
| Fransiya | 136,2 | 150,6 | 129,0 | 110,5 | 9 | 9 |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 36,8 | 100,1 | 120,9 | 2,7 b. | 13 | 10 |
| Ukraina | 74,4 | 94,1 | 104,5 | 126,6 | 10 | 11 |
| Koreya Respublikasi | 68,5 | 75,0 | 84,5 | 109,4 | 11 | 12 |
| Turkmaniston | 31,6 | 69,2 | 56,1 | 2,2 b. | 16 | 13 |
| Pokiston | 22,3 | 64,3 | 4,7 b. | 2,9 b. | 24 | 14 |
| Buyuk Britaniya | 31,3 | 57,4 | 100,5 | 183,5 | 17 | 15 |
| Latviya | 31,2 | 37,9 | 53,9 | 121,7 | 18 | 16 |
| Germaniya | 31,8 | 36,8 | 166,1 | 115,8 | 15 | 17 |
| Belarus | 27,4 | 33,7 | 151,3 | 123,2 | 20 | 18 |
| Ozarbayjon | 22,0 | 32,9 | 142,4 | 149,7 | 25 | 19 |
| Polsha | 29,2 | 31,4 | 116,4 | 107,7 | 19 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

## Respublikaning ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

| | Xitoy | | Rossiya | | Qozog`iston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| **Jami eksport** | **1958,7** | **2245,5** | **1536,3** | **1794,9** | **1044,4** | **1156,5** | **619,7** | **878,1** |
| **paxta tolasi** | 51,1 | 141,4 | 2,7 | 0,5 | - | - | 8,1 | 9,1 |
| **oziq-ovqat mahsulotlari** | 39,9 | 47,9 | 133,0 | 149,7 | 330,7 | 235,5 | 17,8 | 92,4 |
| **kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar** | 119,8 | 113,8 | 124,3 | 133,6 | 76,3 | 89,7 | 83,5 | 44,6 |
| **energiya manbalari va neft mahsulotlari** | 864,8 | 1008,7 | 430,3 | 602,1 | 439,4 | 412,7 | 1,8 | 11,1 |
| **qora metallar** | 2,6 | 0,3 | 2,7 | 2,3 | 13,7 | 54,8 | 4,4 | 4,3 |
| **rangli metallar** | 53,4 | 57,9 | 24,4 | 55,2 | 13,1 | 35,4 | 342,9 | 491,1 |
| **mashina va asbob-uskunalar** | 3,8 | 2,8 | 45,2 | 53,2 | 30,1 | 115,1 | 20,2 | 49,7 |
| **to`qimachilik mahsulotlari** | 241,7 | 316,7 | 408,5 | 443,0 | 31,1 | 30,2 | 94,9 | 131,2 |
| **xizmatlar** | 523,8 | 519,9 | 337,7 | 324,2 | 76,1 | 99,7 | 41,8 | 41,5 |
| **boshqalar** | 57,8 | 36,2 | 27,6 | 31,1 | 34,0 | 83,3 | 4,3 | 3,1 |

Xizmatlar eksporti hajmi 2 544,8 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 18,6 % ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 12,7 % ga o`sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`g`ri keladi.




## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida jami 1 031,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 959,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`sish sur`ati mos ravishda - 116,6 % va 146,4 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 449,2 mln. AQSh dollariga teng 612,8 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 510,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 418,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko`rinishidagi o`sish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 189,5 % va 122,0 % ni tashkil etdi).

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-sentabr, 2019 y.)




Hukumatimiz tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy eksportdagi meva va sabzavotlarning ulushi 7,0% ni tashkil etdi.

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

(yanvar-sentabr)

| Davlat nomi | 2018-yil | | | 2019-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % |
| Qirg`iziston | 69,4 | 60,0 | 9,2 | 96,7 | 286,3 | 29,8 |
| Qozog`iston | 449,4 | 318,0 | 48,5 | 419,2 | 222,5 | 23,2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 168,6 | 119,5 | 18,2 | 193,1 | 120,7 | 12,6 |
| Turkiya | 15,0 | 16,6 | 2,5 | 54,3 | 91,0 | 9,5 |
| Pokiston | 18,2 | 14,2 | 2,2 | 26,6 | 53,1 | 5,5 |
| Afg`oniston | 52,7 | 38,7 | 5,9 | 27,9 | 44,1 | 4,6 |
| Ukraina | 7,7 | 5,3 | 0,8 | 50,7 | 33,4 | 3,5 |

| Davlat nomi | 2018-yil | | | 2019-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 32,1 | 22,9 | 3,5 | 31,9 | 28,7 | 3,0 |
| Eron | 9,1 | 7,3 | 1,1 | 13,4 | 10,3 | 1,1 |
| Tojikiston | 3,5 | 1,8 | 0,3 | 14,6 | 9,8 | 1,0 |
| Iroq | 3,7 | 4,0 | 0,6 | 14,8 | 8,6 | 0,9 |
| Belarus | 4,7 | 4,6 | 0,7 | 10,7 | 6,7 | 0,7 |
| Germaniya | 1,8 | 3,4 | 0,5 | 2,3 | 4,7 | 0,5 |
| Ozarbayjon | 2,4 | 2,6 | 0,4 | 4,2 | 4,6 | 0,5 |
| Turkmaniston | 3,8 | 2,1 | 0,3 | 14,4 | 4,2 | 0,4 |
| Polsha | 0,2 | 0,3 | 0,0 | 8,2 | 3,3 | 0,3 |
| Boshqa mamlakatlar | 42,0 | 33,7 | 5,3 | 48,7 | 27,1 | 2,9 |

***- qiymat ifodasidan*

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti

2019-yilning o`tgan davri mobaynida 1 174,9 mln. AQSh dollari miqdorida to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 21,4 % ga o`sib, umumiy eksport hajmining 8,6 % ini tashkil qildi. Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,3 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (23,1 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 384 turdan ortiq to’qimachilik mahsulotlari dunyoning 56 та davlatiga eksport qilindi.

## To`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

| | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. |
|---|---|---|---|
| **Paxtadan yigirilgan ip** | 463,1 | 554,7 | 661,1 |
| **Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari** | 212,8 | 216,7 | 270,8 |
| **Naqshli mato** | 38,7 | 49,1 | 64,3 |
| **Paxtadan gazlamalar** | 40,7 | 46,5 | 50,5 |
| **Boshqa to`qimachilik mahsulotlari** | 23,6 | 25,8 | 35,7 |
| **Ipak va ipak mahsulotlari** | 16,5 | 28,3 | 44,0 |
| **Gilamlar** | 22,7 | 21,9 | 21,7 |
| **Paxta mahsulotlari** | 19,5 | 18,8 | 20,5 |

Respublikaning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (443,0 mln. AQSh dollari – 37,7 %), Xitoy (316,7 mln. AQSh dollari – 27,0 %) va Turkiya (131,2 mln. AQSh dollari – 11,2 %) davlatlariga tegishli.

## Davlatlar kesimida to`qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 394,4 | 408,5 | 443,0 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 153,4 | 241,7 | 316,7 |
| Turkiya | 82,0 | 94,9 | 131,2 |
| Qirg`iziston | 41,6 | 47,0 | 70,8 |
| Eron | 18,7 | 16,6 | 35,9 |
| Qozog`iston | 36,1 | 31,1 | 30,2 |
| Ukraina | 9,3 | 13,8 | 19,9 |
| Polsha | 15,3 | 17,2 | 18,6 |
| Belarus | 12,3 | 16,1 | 17,7 |
| Tojikiston | 4,1 | 2,0 | 9,3 |
| Misr | 0,8 | 2,1 | 9,1 |
| Bangladesh | 13,3 | 15,2 | 8,6 |
| Italiya | 2,6 | 4,9 | 8,5 |
| Ozarbayjon | 2,5 | 3,9 | 7,5 |
| Pokiston | 0,5 | 4,4 | 6,3 |
| Germaniya | 2,2 | 3,2 | 6,2 |
| Koreya Respublikasi | 19,8 | 6,9 | 5,0 |
| Moldova | 2,1 | 2,3 | 4,5 |
| Vyetnam | 5,5 | 3,7 | 3,7 |
| Afg`oniston | 4,7 | 5,2 | 3,5 |

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 17 968,8 mln. AQSh dollariga (o`sish sur`ati 31,5 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar hamda ularning qismlari (44,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (12,7 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (7,5 %) hisobiga to`g`ri keldi.

## Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4 156,3 mln. AQSh dollariga ko`p import qilindi va 16 167,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 801,2 mln. AQSh dollarga yetgan.

## MDH va boshqa xorijiy davlatlardan import tarkibi

(2019 yil yanvar-sentabr)

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh dollari | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Jami import** | **17968,8** | **131,5** | **100,0** | **6035,5** | **116,0** | **100,0** | **11933,3** | **141,0** | **100,0** |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 1356,4 | 113,9 | 7,5 | 893,3 | 101,6 | 14,8 | 463,1 | 148,8 | 3,9 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 2278,3 | 126,7 | 12,7 | 479,2 | 138,6 | 7,9 | 1799,1 | 123,9 | 15,1 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | 657,5 | 101,1 | 3,7 | 625,0 | 100,5 | 10,4 | 32,6 | 115,0 | 0,3 |
| **Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar** | 1354,3 | 116,3 | 7,5 | 881,1 | 111,0 | 14,6 | 473,2 | 127,5 | 4,0 |
| **Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar** | 182,7 | 124,5 | 1,0 | 120,8 | 110,5 | 2,0 | 61,9 | 165,3 | 0,5 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | 8056,7 | 144,4 | 44,8 | 941,5 | 120,7 | 15,6 | 7115,2 | 148,2 | 59,6 |
| **Xizmatlar** | 1801,2 | 108,7 | 10,0 | 793,8 | 107,8 | 13,2 | 1007,4 | 109,3 | 8,4 |
| **Boshqalar** | 2281,7 | 154,2 | 12,8 | 1300,9 | 138,9 | 21,5 | 980,8 | 180,5 | 8,2 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari (95,0 %), rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (66,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (65,9 %) shuningdek qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar (65,1 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (88,3 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (79,0 %) hissasiga to`g`ri keladi.

## Import tarkibi dinamikasi

(yanvar-sentabr, %)

| Tarkibi | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 9,5 | 8,7 | 7,5 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 16,0 | 13,2 | 12,7 |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | 4,9 | 4,8 | 3,7 |
| **Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar** | 8,2 | 8,5 | 7,5 |
| **Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar** | 1,0 | 1,1 | 1,0 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | 36,2 | 40,8 | 44,8 |
| **Xizmatlar** | 13,3 | 12,1 | 10,0 |
| **Boshqalar** | 10,8 | 10,8 | 12,8 |

2019 yil yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, o`tgan yilning mos davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 40,8 % dan 44,8 % gacha o`sdi, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi esa 8,7 % dan 7,5 % ga kamaydi.

## Import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

(2019 yil yanvar-sentabr)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | | | | | |
| shakar xomashyosi | 151,8 | 170,3 b. | kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar | 37,4 | 154,1 |
| bug`doy | 272,0 | 143,3 | qandolat mahsulotlari | 50,2 | 156,0 |
| un | 60,9 | 69,2 | pista moyi | 130,0 | 145,1 |
| tayyor hayvon yemi | 104,6 | 115,7 | margarin | 24,7 | 117,9 |
| choy | 33,3 | 83,5 | sitrus mevalar | 27,6 | 164,5 |

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| kartoshka | 18,2 | 49,7 | go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari | 24,2 | 2,0 b. |
| **Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar** | | | | | |
| farmatsevtika mahsulotlari | 683,7 | 113,1 | o`simliklarni o`stirish regulyatorlari | 65,6 | 155,0 |
| plastmassa va plastmassa buyumlar | 581,0 | 143,7 | kimyoviy iplar | 47,5 | 107,6 |
| kauchuk va rezina mahsulotlari | 172,0 | 122,3 | kimyoviy shtapelli tola | 42,6 | 97,8 |
| organik kimyo birikmalari mahsuloti | 111,9 | 114,6 | aralashmalar va erituvchilar | 53,4 | 139,4 |
| parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari | 151,8 | 139,7 | kaustik soda | 22,9 | 86,3 |
| bo`yoq ekstraktlari | 105,8 | 114,1 | kimyoviy va mineral o`g`itlar | 53,1 | 4,5 b. |
| **Energiya manbalari va neft mahsulotlari** | | | | | |
| neftni qayta ishlash mahsulotlari | 436,8 | 120,0 | aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir | 14,3 | 83,9 |
| neft xom-ashyosi | 76,8 | 39,1 | elektroenergiya | 50,7 | 110,7 |
| **Qora va rangli metallar** | | | | | |
| qora metall va undan tayyorlangan buyumlar | 1354,3 | 116,3 | rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar | 182,7 | 124,5 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | | | | | |
| avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar | 641,5 | 109,5 | ekskavatorlar va buldozerlar | 284,2 | 123,1 |
| to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari | 366,2 | 90,9 | kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar | 340,0 | 150,0 |
| yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar | 348,5 | 133,3 | yengil avtomobillar | 257,6 | 156,3 |
| konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar | 549,5 | 180,4 | shinalar va pokrishkalar | 135,0 | 90,0 |

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % | Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | O`tgan yilga nisbatan, % |
|---|---|---|---|---|---|
| qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalari | 232,3 | 98,8 | tibbiy asbob-uskunalar | 209,8 | 164,3 |
| tuproqni maydalovchi uskunalar | 376,1 | 162,7 | elektron dvigatellar, generatorlar va transformatorlar | 245,7 | 90,8 |
| vakum va suyuqlik nasoslari | 435,6 | 2,2 b. | neft-gaz quvurlari uchun truba va trubkalar | 153,8 | 95,6 |
| uchuvchi apparatlar | 398,3 | 3,0 b. | oziq ovqatsanoati uchun uskunalar | 49,5 | 52,0 |
| **Boshqalar** | | | | | |
| yog`och va yog`och buyumlar | 466,7 | 101,0 | boshqa tirik o`simliklar | 21,7 | 64,3 |
| qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar | 191,6 | 120,5 | asbest | 25,3 | 70,6 |
| sement | 135,0 | 109,8 | qimmatbaho bo`lmagan metalldan ishlangan oshxona asbob-anjomlari | 31,5 | 129,9 |
| rangli metall konsentartlari va rudalari | 279,0 | 3,4 b. | o`rindiq mebellar | 31,9 | 164,8 |
| tosh, gips va keramik buyumlar | 127,5 | 2,0 b. | o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari | 24,5 | 159,8 |
| qurilish majmualari konstruksiyasi | 308,2 | 3,0 b. | yirik shoxli mollar | 92,2 | 3,2 b. |
| shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar | 58,7 | 117,6 | tirik uy parrandalari | 6,1 | 85,2 |

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi barqaror nisbati saqlanib qolmoqda va joriy davrda ushbu ko`rsatkich 33,6:66,4 ni tashkil etdi




Hisobot davri natijalariga ko`ra, import bo`yicha hamkor-davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 16,2 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Xitoy umumiy import hajmida 20,4 % ulushi bilan birinchi o`rinni egalladi.

O`zbekiston Respublikasi tomonidan importning jadal o`sishi tufayli Singapur (o`sish sur`ati o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 b.) yirik import hamkor-davlatlar yigirmataligiga kirdi.

# Tovarlar va xizmatlar importidagi yigirmata yirik hamkor-davlatlar

(yanvar-sentabr)

| Davlat nomi | mln. AQSH dollari | | o`sish sur`ati, % | | o`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 2488,0 | 3665,6 | 124,1 | 147,3 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 2644,1 | 2909,6 | 136,0 | 110,0 | 1 | 2 |
| Koreya Respublikasi | 1220,5 | 2005,7 | 138,6 | 164,3 | 3 | 3 |
| Qozog`iston | 1097,3 | 1481,2 | 152,7 | 135,0 | 4 | 4 |
| Turkiya | 900,7 | 962,4 | 193,6 | 106,8 | 5 | 5 |
| Germaniya | 492,7 | 707,2 | 110,2 | 143,5 | 6 | 6 |
| AQSh | 309,0 | 493,9 | 2,0 b. | 159,8 | 7 | 7 |
| Litva | 191,1 | 345,1 | 101,9 | 180,6 | 12 | 8 |
| Turkmaniston | 125,8 | 332,7 | 160,6 | 2,6 b. | 15 | 9 |
| Yaponiya | 303,7 | 305,2 | 2,7 b. | 100,5 | 9 | 10 |
| Italiya | 189,4 | 301,2 | 157,7 | 159,0 | 13 | 11 |
| Latviya | 306,8 | 259,5 | 2,1 b. | 84,6 | 8 | 12 |
| Hindiston | 185,8 | 246,8 | 77,3 | 132,8 | 14 | 13 |
| Belarus | 251,2 | 227,0 | 2,7 b. | 90,4 | 11 | 14 |
| Ukraina | 251,6 | 188,3 | 2,1 b. | 74,9 | 10 | 15 |
| Eron | 92,6 | 148,9 | 2,3 b. | 160,8 | 19 | 16 |
| Tojikiston | 119,6 | 126,8 | 2,9 b. | 106,0 | 16 | 17 |
| Shveytsariya | 109,0 | 121,3 | 94,9 | 111,3 | 17 | 18 |
| Singapur | 14,4 | 109,3 | 2,1 b. | 7,6 b. | 41 | 19 |
| Qirg`iziston | 99,7 | 107,5 | 170,6 | 107,8 | 18 | 20 |

2019-yilning yanvar-sentabr oyida respublikaga 153 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-sentabr)

| | 2017 г. | 2018 г. | 2019 г. |
|---|---|---|---|
| 1 | Xitoy Xalq Respublikasi 19,5 % | Rossiya Federatsiyasi 19,3 % | Xitoy Xalq Respublikasi 20,4 % |
| 2 | Rossiya Federatsiyasi 19,0 % | Xitoy Xalq Respublikasi 18,2 % | Rossiya Federatsiyasi 16,2 % |
| 3 | Koreya Respublikasi 8,6 % | Koreya Respublikasi 8,9 % | Koreya Respublikasi 11,2 % |
| 4 | Qozog`iston 7,0 % | Qozog`iston 8,0 % | Qozog`iston 8,2 % |
| 5 | Turkiya 4,5 % | Turkiya 6,6 % | Turkiya 5,4 % |
| 6 | Germaniya 4,4 % | Germaniya 3,6 % | Germaniya 3,9 % |
| 7 | Braziliya 2,8 % | AQSh 2,3 % | AQSh 2,7 % |

Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog`iston, Turkiya, Germaniya va AQSh hamkor davlatlaridan jami import hajmi 12 225,6 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 68,0 % ini tashkil qiladi.

## Xizmatlar importi tarkibi

(yanvar-sentabr, ulushi %)




Xizmatlar importi hajmi 1 801,2 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 10,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 % ga oshgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm xizmatlari), transport xizmatlaridan iborat bo`ldi.

## Qurilish materiallari importi

2019-yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida 1 004,4 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018-yilning mos davriga nisbatan 17,0 % ga o`sib, umumiy import hajmining 5,6 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (46,1 %), sement (13,4 %), shisha va shisha buyumlar (4,8 %) hamda asbest (2,5 %) asosiy ulushni egallagan.

## Qurilish materiallari importi

(yanvar-sentabr, 2019 y.)

**Qurilish materiallari importi**

import hajmi 1004,4 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 5,6 %





**Yog`och va yog`och mahsulotlari**

import hajmi 463,5 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 46,1 %

**Sement**

import hajmi 135,0 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 13,4 %





**Shisha va shisha mahsulotlari**

import hajmi 48,1 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 4,8 %

**Asbest**

import hajmi 25,3 mln. AQSh dollari
jami import tarkibidagi ulushi 2,5 %



Infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-sentabr oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

## Qurilish materiallari importi dinamikasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

| | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil |
|---|---|---|---|
| Sement | 15,9 | 123,0 | 135,0 |
| Yog`och va og`och mahsulotlari | 340,3 | 451,3 | 463,5 |
| Asbest | 22,9 | 35,8 | 25,3 |
| Shisha va shisha buyumlar | 29,2 | 36,7 | 48,1 |

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligi quyidagi jadvallardan ko`rish mumkin.






Shu bilan, yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi**
**Tel.:71-230-80-42 (43)**